

"Namangan Sharbati" MChJ QK tomonidan "SILK" tovar belgisiga berilgan MGU 15169-sonli guvohnomani O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi qaroriga qarshi topshirilgan AMG 2017 009 sonli apellyasiyani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha 2017 yil 27 iyuldagi APELLYASIYA KENGASHINING QARORI

I. MGU 15169-sonli guvohnoma bo'yicha tovar belgisi Tovar belgilari davlat reestrda 2006 yil 25 mayda "ROSE DIAMOND" MChJ QK nomiga 2006 yil 17 avgust ustuvorligi bilan TXXKning 03-sinf tovarlariga nisbatan ro'yxatga olingan.

II. Apellyasiya topshirgan shaxs bayon etilgan talablarni to'liq qo'llab-quvvatladi.

Yuqorida bayon qilinganlarni e'tiborga olib, apellyasiya topshirgan shaxs Apellyasiya kengashidan MGU 15169-sonli guvohnomaning O'zbekiston Respublikasi hududida 03-sinf tovarlariga nisbatan haqiqiy emas deb e'tirof etilishini so'raydi.

III. Baxsli tovar belgisi egasining vakili, topshirilgan apellyasiya bilan belgilangan tartibda tanishtirib chiqilgach, o'zining yozma javobi va og'zaki chiqishida apellyasiya dalillariga nisbatan o'z noroziligini izhor etdi va ekspertiza amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazilganini ta'kidladi.

IV. Apellyasiyada qo'yilgan masalalarning mohiyati bo'yicha Apellyasiya kengashiga taqdim etilgan o'z fikr-mulohazalarida ekspertiza, jumladan, qabul qilingan qarorning haqqoniyligiga dalillar keltirdi.

V. Ish bo'yicha materiallarni o'rganib va apellyasiya qatnashchilarining chiqishlarini eshitgach, Apellyasiya kengashi apellyasiya topshirgan shaxsning dalillarini asossiz deb topadi.

Talabnoma berilgan belgining muhofazaga layoqatligini baholashda "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (bundan buyon - Qonun) va "Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalarini" (2009 yil 29 iyulda 1988-son bilan ro'yxatga olingan) (bundan buyon - Qoidalar) huquqiy baza vazifasini o'tadi.

Qonunning 15-moddasiga muvofiq ekspertizani o'tkazish chog'ida talabnoma berilgan belgining Qonunning 3-moddasi birinchi qismi va 10-moddasi qoidalariga muvofiqdigi tekshiriladi, Qonunning 10-moddasi birinchi qismining 14-bandi bundan mustasno.

Shunday qilib, Agentlik MGU 15169-sonli guvohnoma bo'yicha "SILK" tovar belgisini Qonunning 15-moddasiga muvofiq qonuniy ro'yxatdan o'tkazgan. Ekspertiza Qonunning 10-moddasi birinchi qismining 14-bandi istisno qilingan holda o'tkazildi.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni"ning 10-, 15-, 25-moddalariga tayangan holda Apellyasiya kengashi

QAROR QILADI:

1. "SILK" tovar belgisiga berilgan MGU 15169-sonli guvohnomani haqiqiy emas deb e'tirof etish to'g'risidagi apellyasiya qondirilmasin.

2. "SILK" tovar belgisiga berilgan MGU 15169-sonli guvohnoma o'z kuchida qoldirilsin.